

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTINING QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

XOJAMETOV AJINIYAZ ANDRIYANOVICH

**BESH TASHABBUS ASOSIDA TALABA YOSHLAR
MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2026

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Хожаметов Ажинияз Андриянович

Besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari *

Хожаметов Ажинияз Андриянович

Педагогические основы развития духовности учащейся молодежи на основе пяти инициатив **

Khojametov Ajiniyaz Andriyanovich

Pedagogical foundation of spiritual development of the student youth on the basis of five initiatives **

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... **

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTINING QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

XOJAMETOV AJINIYAZ ANDRIYANOVICH

**BESH TASHABBUS ASOSIDA TALABA YOSHLAR
MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Ped837 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi T.N.Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutining Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspi.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utebayev Tajibay Tileumuratovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

pedagogika fanlari doktori, professor

pedagogika fanlari doktori, professor

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 raqamli Ilmiy kengashning “___”_____2026 yil soat___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: *****, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, ***** ko‘chasi, *****-uy. Tel.: (+998) *****; faks: (+998) *****; e-mail***** @umail.uz

Doktorlik dissertatsiyasi bilan Buxoro davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: *****, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, ***** ko‘chasi, *****-uy. Tel.: (+998) *****; faks: (+998) *****..

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “___”_____kuni tarqatildi.
(2026 yil «___»_____dagi___ raqamli reyestr bayonnomasi)

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc) professor

ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asrda jahon miqyosida texnogen sivilizasiyaning taraqqiy etishi moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishidagi qarama-qarshilikni yuzaga keltirdi. Texnik sivilizasiya taraqqiyotida talabalarning o'quv-bilish faoliyatining muayyan omillariga ularning axloqi, ma'naviy qadriyatlari tizimi nuqtai nazaridan emas, balki texnokratik fikrlashning muhimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoni ilmiy-texnik o'zlashtirish ta'siri ostida inson tafakkuri maqsadga yo'naltirilgan, oqilona, sof instrumental qobiliyatga aylanmoqda va fan-texnika madaniyatining strategik mo'ljallarini tanqidiy tahlil qilishga qodir bo'lmay qolmoqda.

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi qat'iy xulosaga kelindi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy-metodik ta'minoti yaratildi. Natijada bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi. Besh tashabbus asosida talabalarda ma'naviyatni rivojlantirish mexanizmlarini jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda oliy ta'lim tizimida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish omili sifatida ma'naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, talabalarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan multimedia vositalarini yaratish; talabalarni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish va mutaxassislik xususiyatidan kelib chiqqan holda mazmunli o'tkazish, ma'naviy yuksalish hamda milliy taraqqiyotning ta'limiy asoslarini amaliyotga joriy etishdan iborat.

Besh tashabbus asosida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning diagnostik tizimini va ularda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim- tarbiya jarayonlari sifatini oshirish, besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "...talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu esa talaba yoshlarda ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, tarbiyaviy vaziyatlar texnologiyasi asosida talaba yoshlarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi»gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 22-yanvar PF 60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon va qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika Fan va texnologiyalari rivojlanishining 1.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Association for Educational Communications and Technology - AECT (AQSh), Singapur Milliy Universiteti (NUS) Singapur, Centre of increasing pedagogical qualification on base Manchesters university (Buyuk Britaniya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya), Pekin universiteti (PKU) Xitoy, Belfield

¹ 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

pedagogical university (Germaniya), Chunang universiteti (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviyatini rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan ilmiy- tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: ma'naviy-axloqiy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishga doir xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari takomillashtirilgan (Association for Educational Communications and Technology - AECT); oliy ta'lim muassasasi talabalarini tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga doir tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi menejment va xizmat ko'rsatish sohasi mexanizmlari asosida takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university); talabalarni ma'naviy- ma'rifiy faoliyatni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan, tarbiyaviy vazifalarini loyihalash, ma'naviy-axloqiy bilimlarni turli tarbiyaviy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradigan ijtimoiy-psixologik treninglar tizimi ishlab chiqilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); talaba shaxsi ma'naviyatini rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari ishlab chiqilgan (Chunang universiteti); bo'lajak pedagog shaxsi ma'naviyatini shakllantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Miyagi pedagogika universiteti); talabalarda ma'naviy madaniyatni tarbiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi); talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning diagnostik tizimi ishlab chiqilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti).

Dunyoda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va boshqarishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish; talabalarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ko'makchi kompyuterli tizimi va virtual ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish; talabalarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning innovatsion shakl, metod va vositalari tizimini ishlab chiqish; auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning pedagogik imkoniyatlarini integratsiyalash asosida talabalarni ma'naviy- ma'rifiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning har xil komponentlari Abdulla Sher, B.Husanov, U.Aleuov, G.Bekimbetova, A.Zunnunov, Y.Masharipov, K.Rahimova, N.Sayidaxmedov, E.Umarov, O.Jamoldinova, B.Yo'ldosheva, B.Maxmudov, Z.Salieva, R.Torejanova, G.Tulnova, T.Utebaev kabi O'zbekistonlik olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan. Talaba

yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishning falsafiy, ijtimoiy-antropologik masalalari A.Begmatov, M.Kaxxarova, A.Mavrulov, J.Tulenov, E.Yusupov, O.G'aybullaev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'quvchi-yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, antropologik va akmeologik masalalari yuzasidan B.Adizov, R.Djuraev, O.Jamoliddinova, Z.Ismailova, U.Mahkamov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Raximov, D.Ro'zieva, D.Sharipova, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.Egamberdieva, M.Quronovlar ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalashning yangicha yondashuvlarini tadqiq etishga doir tadqiqot ishlari: B.Ashmarin, L.Ayrapetyans, X.Bube, Ye.Vrublevskiy, M.Godik, A.Dadayan, S.Jelyazkov, V.Karakovskiy, L.Matveev, A.Novikov, V.Platnov, V.Farfel, V.Filin, B.Lou, S.Brizgalova, M.Ilina, T.Rotenkova, S.Troyanskaya, L.Luzina, O.Paripkolarning tadqiqotlarida tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish, o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirish, umummadaniy kompetensiyani tarkib toptirish masalalari yoritib berilgan.

Xorijiy mamlakatlarda yoshlarning tarbiyaviy xususiyatlarini takomillashtirish borasida Ch.Reich, A.Baumgarten, A.Bovie, A.Destyut de Tratsi, Fridrix Nisshe, Gustav Lebon, Uillard Mallinza, Devid Minar, Djordj Uolford, Garold Uolsbi, Charlz Blattberglar o'z tadqiqotlarida axborot, mafkuraviy, psixologik kurashlarining xususiyatlari, yoshlarga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlar, manipulyatsiya jarayonlarining shaxs rivojiga ta'siri, «ommaviy madaniyat»ning globallashuvi, g'oyaviy kurashning turli jabhalarini yoritishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borishgan.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviyatini rivojlantirish muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biroq besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutini Qoraqalpog'iston filiali ish rejasining A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik shart- sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy tafakkur va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning o'zaro aloqadorligini tahlil etish asosida talaba yoshlarda ma'naviyatni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish;

besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlanganlik darajasini tashxis etish va monitoringini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasini takomillashtirish va samaradorligini baholash;

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning neyro-lingvistik dasturlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish;

texnogen sivilizatsiya sharoitida talaba yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirish jarayoni. Tadqiqot jarayonida tanlab olingan oliy ta'lim muassasalarining tajriba-sinov jarayoniga jami 675 nafar respondent jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirish mazmuni, shakl, bosqichlari, metod va vositalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, tarixiy, falsafiy, sosiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; sosiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

milliy tafakkur va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning o'zaro aloqadorligini tahlil etish asosida talaba yoshlarda ma'naviyatni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish orqali kasbiy ijtimoiylashtirishning shaxslararo, guruh, jamoaviy va qadriyatga yo'naltirilgan integratsion ta'sir ko'rsatish mexanizmi takomillashtirilgan;

besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlanganlik darajasini tashxis etishning axboriy- kognitiv, shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan, hissiy-emosional, faoliyatli- ijodiy komponentlari hamda diagnostik apparati kasbiy-pedagogik yo'nalganlik, pedagogik muloqot ko'nikmalarini baholash, muvaffaqiyatga erishish va empatiya darajasini aniqlash orqali takomillashtirilgan;

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning bilishga doir; baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiya; fazilatlarni faoliyatda namoyon etish; mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini integratsiyalash asosida lokal-modulli texnologiyasi takomillashtirilgan;

talabalarda samarali muloqot texnikasini shakllantirish, o'z xulq-atvorini ongli ravishda o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatga tayyorlash hamda fikriy jarayonlarni tashqi va ichki ta'sirlar birligi asosida boshqarish orqali ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari takomillashtirilgan;

texnogen sivilizatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasasi talabalarida axborot xavfsizligini ta'minlash hamda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishga doir tyutorlik faoliyatini tashkil etishning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirilgan hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish samaradorligini baholashning diagnostik apparati takomillashtirilgan;

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatning modernizatsiyalashgan shakllari aniqlashtirilgan va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari takomillashtirilgan;

besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik asoslarini tashxis etish shakl va metodlari pedagogika mutaxassisliklari uchun yozilgan - "Pedagogik mahorat" (№01/1336-A/F-2023) darsligi mazmunida o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, maqsad va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga keng joriy etilganligi hamda ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik asoslariga yo'naltirilgan lokal modulli va neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari takomillashtirilib, talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha takomillashtirilgan malaka talablari, fan dasturlarini ishlab chiqishda bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir kompetensiyalarning aniqlashtirilganligi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonini samarali

loyihalash mexanizmlarining takomillashtirilganligi, besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik asoslarining diagnostik tizimining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari bo'yicha ilmiy natijalari:

talabalarda ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik- psixologik omillarini aniqlashtirish orqali kasbiy ijtimoiylashtirishning shaxslararo, guruhiy, jamoaviy va qadriyatga yo'naltirilgan integratsion ta'sir ko'rsatish mexanizmi -O'zstandart agentligining 2015 yil 15 fevraldagi 2-540-son qarori bilan tasdiqlangan bakalavriat yo'nalishlari Davlat ta'lim standarti mazmuniga singdirilgan. Mazkur integratsion ta'sir ko'rsatish mexanizmlaridan pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun takomillashtirilgan o'quv dasturlari va darsliklarni yaratishda foydalanilgan;

oliy ta'lim muassasasi talabalarida ma'naviyatning rivojlanganlik darajasini tashxis etishning axboriy- kognitiv, shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan, hissiy-emosional, faoliyatli- ijodiy komponentlari - A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida talabalarning ma'naviyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishda samarali foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutini Qoraqalpog'iston filialining 2024 yil 12 sentabrdagi 351-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar asosida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi va odob-axloq qoidalarini ishlab chiqilgan;

talabalarda ma'naviyatni rivojlantirishning besh - tanishuv, bilishga doir; baholash, refleksiya, tanlov; interiorizatsiya; fazilatlarini faoliyatda namoyon etish; mustahkamlash va korreksiya bosqichlarini integratsiyalash asosida ishlab chiqilgan lokal-modulli texnologiya - A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha ish rejasiga muvofiq yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umumpedagogik texnologiyasini takomillashtirishda asos sifatida xizmat qilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutini Qoraqalpog'iston filialining 2024 yil 12 sentabrdagi 351-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar asosida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlanganlik darajasini tashxis etishning elektron- dasturiy ta'minoti va ko'makchi-kompyuterli tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, 13 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, 230 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Istiqlol tafakkuri va talaba yoshlarda ma'naviyatni rivojlantirishning o'zaro aloqadorligi, talaba yoshlarda axloq va ma'naviyatni rivojlantirishning o'zaro bog'liqligi, besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik omillari va talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishda pedagogik qarashlar haqida so'z yuritilgan.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan bir paytda demokratik tamoyillarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me'yorlar asosida ko'p partiyaviylik tizimini takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat va o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tkazish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o'zida ifoda etgan xolda ma'naviyat bilan tutashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga muvofiq “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasi 3-bob. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarining 4-§. “Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish” masalasiga to'xtalib o'tilgan.

Unga ko'ra, Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish belgilab quyilgan.

Talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratish va bu

orqali ularni jamiyatda ham jismoniy, ham tarviyaviy xususiyatlarni shakllantirish belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot ishimiz doirasida axloq va ma'naviyatning o'zaro aloqadorligini ko'rib chiqish ham maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Bugungi kunda tarbiyaga ijtimoiy hodisa sifatida qarashdan shu narsa anglanadiki, tarbiya jamiyat manfaatlarini ko'zlab va uning rivojlanganlik darajasiga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim. Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra yosh avlodni hayotga tayyorlash, yoshlar va kattalarni mavjud shart-sharoitlarga moslashtirishdir. Yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, tarbiyaning jamoatchilik (ijtimoiy) tavsifi, bir tomondan, tarbiyaning o'zi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash sifatida amalga oshirilishi; ikkinchi tomondan, jamiyat tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'lum yo'nalishda tarbiyalashga ko'maklashadigan tizim sifatida tashkil etilishida o'z ifodasini topadi.

Adabiyotlar tahlili asosida madaniyat tushunchasining quyidagi o'ziga xosliklarini ta'kidlab o'tish zarur: madaniyat tushunchasida moddiy va ma'naviy boyliklar hamda inson ruhiy olami ifodalanadi. Shu bois madaniyat tarkibida uch asosiy qatlam mavjud:

- 1) insoniyatning muntazam aqliy va jismoniy faol ijodiy faoliyati;
- 2) moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqish, iste'mol qilish (foydalanish) va asrash;

- 3) qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, huquqiy amallarning hayotga tatbiq etuvchi ijtimoiy tuzilmalar. Madaniyat - faol ijodiy faoliyatdir. Inson faol ijodkorlik orqali rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Ijodkorlik - inson ma'naviy-ruhiy faoliyatining chegaralarini kengaytiradi. Inson ijodiy ko'nikmalar, aqliy va jismoniy mehnat orqaligina ijodkorlik maqomiga ega bo'ladi.

Biz yoshlarda ma'naviy ehtiyojni rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim deb bildik:

Birinchiidan, shaxs ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun uni o'rganish lozim. Ya'ni yoshlar o'z ma'naviy bilim saviyasini oshirishga o'zlarida ehtiyoj sezayptilarmi, yo yo'q? Buni anglab yetmasdan maqsadga erishish mumkin emas;

Ikkinchiidan, ma'naviy ehtiyojni bir zarb bilan rivojlantirish mumkin emas;

Uchinchiidan, ma'naviy ehtiyojni rivojlantirish uchun har bir fuqaroda ziyolilik sifatlarini oshirishni talab qiladi. Ziyoli faqat diplomli, yuksak lavozimli kishi emas. Ziyoli, shu bilan birga, ma'rifatli, kishilarga nur tarqatuvchi, ongini yorituvchi insonlardir, Bundaylar mamlakatimizda juda ko'p;

To'rtinchiidan, yoshlarda ma'naviy ehtiyojni rivojlantirishda yana bir muhim muammo bor. Bu ma'naviy boylklarni o'zlashtirish va yaratish malakasidir;

Beshinchiidan, ma'naviy ehtiyoj milliy-mahalliy xususiyatlarni e'tiborga olishni taqozo etadi;

Oltinchiidan, yoshlar ma'naviy ehtiyojini ma'muriy yo'llar bilan rivojlantirish juda murakkab yo'l. Bunda asosiy e'tibor tashviqot usuliga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, adabiyot, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish.

Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chinnoqtirish, ularni sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish.


Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish.

To'rtinchi tashabbus - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish.

Beshinchi tashabbus - xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning falsafiy (ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy), pedagogik-psixologik omillari tasnif qilindi. Jumladan, falsafiy omillar ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy jihatdan tahlil etilib, taraqqiyotning o'zbek modeli, I.Karimov va Sh.Mirziyoyev asarlari, milliy g'oya va mafkura, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, vatanparvarlik, milliy-madaniy meros, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni o'z ichiga qamrab oldi. Psixologik omillar intellektual, emosional va motivatsion soha bilan aloqadorlikda tahlil etilib, talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishda motiv, maqsad, his-tuyg'ular, shaxslilik sifatleri, refleksiyaning o'rni tadqiq etildi. Pedagogik

omillarga esa milliy tarbiya, tarbiya paradigmalari, axborot iste'moli madaniyati, deontologik tayyorgarlik kabilar kiritildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirish omillari

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish, uni ob'ektiv baholashning paradigmalar mezon va darajalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar "hayot ma'nosini anglash", "hayotga maqsadli munosabatda bo'lish", "hayotga mustahkam ishonch va e'tiqod", "vatanni sevish", "insoniylik", "oila mas'uliyati", "kasbga muhabbat" va boshqa shu kabi ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarning tahlili, ma'naviy-axloqiy ongning turlarini definitsiyalash, talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish muammolarini o'z ichiga olib, xalqaro miqyosda yoshlarni ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning yangicha modellarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani singari ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ham o'zgarishlar yuz berdi.

Mazkur yondashuv amaliy pedagogik faoliyatda quyidagi qoidalar asosida olib borilishi maqsadga muvofiq:

1) talabani faol nuqtai nazar, uning mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish;

2) talaba bilan muloqotda unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

3) pedagog talabalarning muvafaqqiyatlaridan quvona bilishi lozim;

4) pedagog muhim muammolarni hal etishda talabaga yordam berishi kerak;

5) tarbiyaviy vazifalarni bosqichma-bosqich hal etishda pedagog ularni amalga oshirishning har bir talabaga yuqori darajada foyda keltiradigan variantlarini izlab topishi kerak;

6) guruhda, talabalar sosiumida ham pedagog insonparvarlik munosabatini shakllantirishi kerak, u talabalarning kamsitilishiga, ruhi tushib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, yosh avlodga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda har bir ota-onaning roli ham juda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma’naviyatni rivojlantirish mezonlari, talaba yoshlar ma’naviyatni rivojlantirish ijtimoiylashtirish omili sifatida, talaba yoshlarning ijtimoiy-pedagogik vaziyatlar asosida ma’naviyatni rivojlantirish va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talaba yoshlarning ma’naviyatni rivojlantirish masalalari yoritilib berilgan.

Global miqyosdagi ijtimoiy jarayonlarning ko‘p o‘lchamliligi, yoshlarni tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy asos va omillari murakkabligi hamda ahamiyatliligi axloqiylikni tashhislashning individual- psixologik, ijtimoiy, emosional, qadriyatli yo‘nalganlik xususiyatlari bilan boyitiladigan mezonlarini tanlab olishga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ma’naviy madaniyatni shakllantiradigan mezonlarni shartli ravishda bir necha guruhga bo‘lish mumkin:

1) millat, xalq, davlatchilik, madaniyat, me’moriy yodgorliklar va boshqa shu kabilarni qamrab oluvchi tarixni, ming yillar davomida rivojlanib kelayotgan qishloq va suv xo‘jaligi bilan bog‘liq agrar madaniy an‘analarni, geografik shart-sharoitga aloqador tarixiy muhitni ifodalovchi moddiy meros;

2) xalqimizga xos bir necha ming yillik diniy e‘tiqod, ta’lim-tarbiya. shuningdek, barcha ilm-fan sohalari va ular rivojida muhim o‘rin tutgan mutafakkirlar va ularning asarlari, xalq ijodini qamrab oluvchi madaniy meros;

3) xalqimizga xos an‘analar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar. turmush tarzi bilan bog‘liq boshqa madaniy omillar;

4) xalq qadriyatlari, tafakkur tarzi, mafkurasi, xalqqa xos ma’naviy xususiyatlar, g‘oyalar, ruhiyat va o‘zaro ijtimoiy qonuniyatlar;

5) hozirgi jamiyatimizda bevosita amaliy faoliyat yuritayotgan, inson tarbiyasida katta ta’sirga ega, umuman ma’naviy dunyoqarash shakllanishida bosh rol o‘ynaydigan ta’lim-tarbiya maskanlari, Ommaviy axborot vositalari, kutubxona, teatr, san’at saroylari va yoshlar markazlari kabi boshqa ma’naviy ta’lim vositalarini o‘z ichiga oladi.

Yuqorida bayon etilganlar ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning umumiy mezonlari sirasiga kirib, tadqiqotimiz ob’ektidan kelib chiqqan holda, biz pedagogik mezonlar masalasini ham o‘rganishga harakat qildik. Jumladan, ta’lim falsafasiga doir adabiyotlarda pedagogik kategoriya sifatida mezonning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadi: boshqaruvchi talablar; tarbiyaviy jarayonning

qonuniyatlari hamda ziddiyatlari; e'tiqod sifatida namoyon bo'luvchi ichki boshqaruvchi g'oya; ma'lum doiradagi hodisa va jarayonlarga nisbatan tadbir etish; mezonlar guruhida o'zaro ta'sirlashish va bir-birini to'ldirish. Shunday qilib, pedagogik mezonlar "pedagog borlig'ining dominant, pedagogik ta'sir mavjudligini ta'minlovchi faoliyatning mazmuni va mohiyatini belgilab beruvchi qoidasidir". Talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish o'z navbatida mazkur jarayon samaradorligini kafolatlovchi mezonlarni aniqlashtirib olishni taqozo etdi. Talaba yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish parametrlariga tayangan holda tadqiqot doirasida texnologik yondashuv asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning axborot- bilish, shaxsiy-qadriyatli, hissiy-emosional va faoliyatli-ijodiy mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Talabalarda ma'naviyatni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari

Mezonlari	Ko'rsatkichlari
Axboriy- bilish	Umummadaniy va kasbiy tavsifdagi bilimlarga egalik
	Pedagoglik kasbiga doir ma'naviy-madaniy o'ziga xosliklarni bilish
	Mustaqil ma'naviy-madaniy faoliyati
Shaxsiy- qadriyatli	Ma'naviy madaniyat asosida kasbiy faoliyat motivlarining shakllanganligi
	Ma'naviy madaniyat va tanlangan kasbga nisbatan ijobiy munosabat
	Ma'naviy madaniyatga doir va kasbiy faoliyatga xohish-istakning makkudligi
Hissiy emosional	Ma'naviy madaniyatga nisbatan ijobiy xissiyot (emotsiya)
	Guruh va yaxlit ta'lim muassasasi xayotida faol ishtirok etish
	O'z-o'ziga ishonch, obyektiv o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati
	O'z oldiga maqsad qo'ya olish va uni amalga oshira olish ko'nikmasiga egalik
Faoliyatli- ijodiy	Ilmiy bilish metodlarini egallash, fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'ya olish ko'nikchasiga egalik
	Manbalar bilan ishlash, o'quv faoliyatini tashkil etish ko'nikmasiga
	O'z- o'zini nazorat qilish, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini baholash
	O'quv faoliyatini mustaqil tashkil eta olish malakasiga egalik.

Talaba yoshlarining ma'naviyatini rivojlantirish jarayonida auditoriyadan tashqari ishlarning turli shakllaridan samarali foydalanish mumkin. Tajriba-sinov ishlarini olib borish vaqtida mustaqil ta'lim va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish jarayonida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "**Besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning mexanizmi va bosqichlari**" deb atalgan uchinchi bobida Ma'naviyat taraqqiyotida estetik qadriyatlarning strategik mohiyati va talaba yoshlarga ta'siri, talaba yoshlar ma'navitini rivojlantirishning institutsionallashuvi: besh muhim tashabbus amalda, besh tashabbus asosida talaba yoshlar

ma'naviyatini rivojlantirish texnogen sivilizasiya bilan uyg'unligi masalalari yoritib berilgan.

Talaba yoshlar har bir davrning generatori sifatida sivilizisyalarning almashinuvida tarix sahnasida mo'tadillikni ta'minlash uchun maydonga chiqqanlar. Inson ruhiy holatining quvonch va iztirobga egaligini saxovatli kishilarning marhamati bilan bog'lab, o'z fe'l-atvorlarini chiniqtirib borganlar. Shu sababli yoshlar masalalari bilan shug'ullangan ko'plab estetikshunoslar qadriyatlarining ma'naviyat rivojidadagi roliga e'tibor qaratganlar.

Jamiyatda yoshlar estetik madaniyati o'zining qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimiga ega? degan savolga respondentlarning 82,6% qo'shildi. Bu esa jamiyatda yoshlarning kelajagi ko'proq zamon bilan uyg'unlashib borishini ko'rsatib berdi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar yoshlar kelajagida qanchalik zarur? degan savolga so'ralganlarning 38,9 % ijobiy munosabat bildirishdi. Bu esa, jamiyatda bu borada yoshlarning estetik ongi va tafakkuri ko'proq milliylik bilan uyg'unlashganligini ko'rsatadi. Yoshlarning estetik madaniyatida urf-odatlar, an'ana va marosimlar rolining muhimligi qanday? degan savolga respondentlarning 74,5 % jamiyatda har bir o'sib kelayotgan yosh avlod shu muhitda kamol topishini ma'qulladilar. O'zbek xalqi yoshlarining umuminsoniy qadriyatlari boshqa xalqlardan nimasi bilan ajralib turadi? degan savolga respondentlarning 67,3% umumta'lim maktablarida va oliygohlarda beriladigan ta'lim-tarbiyaning rolini ko'rsatishdi. Bulardan ko'rinadiki, yoshlarimizning bugungi kunga bo'lgan zavqiy munosabatlari ijtimoiy muhit va o'nib o'sgan zaminning ta'siri bilan bog'liqdir.

Tadqiqotchilar tomonidan estetik madaniyatga doir ko'plab ilmiy izlanishlar, falsafiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqodlarda yoshlarning estetik madaniyati to'liq ishning ob'ekti sifatida qaralib tadqiq etilmasdan, bir tomonlama tahlil qilingan.

Talaba yoshlarning estetik kamoloti faqatgina dunyoviy bo'lib qolmasdan, unda diniylik ham o'zining tarixiy zamindagi ildizi orqali islomiy qiyofasida aks etib kelmoqda.

Birinchidan, jahon xalqlari umummilliy ma'naviy qadriyatlarini vorisiylik asosida o'tib kelayotganligiga e'tibor bersak jahon dinlarining an'analari guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan uzoqlashish madaniy vorislikni yo'q qilish, xalqni bir yoqlama dunyoqarashga olib boradi.

Ikkinchidan, har bir davlat o'zining kelajak avlodi haqida qayg'urganda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan diniy tafakkurini yoshlar ongida qay tarzda namoyon bo'lishi, unga munosabat masalasini hisobga oladi.

Uchinchidan, har bir davlatning o'ziga xos va mos jahonning tanlangan alohida boshqaruv shakli bo'lib, qaysidir davlatda dinning hukmronligi aks etsa, boshqasida dunyoviylik o'zining shakl-shamoyili bilan ajralib turadi.

Talaba yoshlardagi hayotga nisbatan innovatsion yondashuvlar vaqt va fazodagi o'zgarishlar va taraqqiyot negizida rivojlanadi. Bunday faoliyat jamiyatning dialektik qonunlari bilan paralel ravishda estetik madaniyatni ham

oldinga siljiti. Natijada talaba yoshlar estetik munosabatlarda ob'ektiv voqelikka va sub'ektiv jarayonlarga nisbatan integrallashuvni amalga oshiradi. Tadqiqot orqali talaba yoshlar jamoasida estetik madaniyat bilan uyg'unlashgan islohotlarga doir sotsiologik so'rovnoma natijada (*675 nafar respondent talaba qamrab olindi*) respondentlarning javoblari quyidagicha bo'ldi. "Talaba yoshlarning estetik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha besh muhim tashabbusning amaliyotdagi rolinini ko'rsating?" degan savolimizga quyidagicha fikrlar olindi:

- besh muhim tashabbusni har doim hayotimda qo'llayman - 92% foiz;
- faoliyatimda amal qilmayman - 7 %foiz;
- sport yoshlarni sog'lom va barkamol inson bo'lib yetishlari uchun zamin sanaladi - 83% foiz;
- yoshlarda teatr, san'at va adabiyotga qiziqishni kuchaytiradi - 52% foiz;
- bugungi kun axborot almashinuvida tezkorlikni oshiradi - 71% foiz;
- kitobga ixlosmandlik tuyg'usini o'stiradi - 83% foiz.
- aniq ma'ulmotga ega emasman - 3% foiz;

O'tkazilgan so'rovnomalar natijalardan barcha yoshlarning tafakkur solahiyati, sohaga qiziqishlari, sport sohasi vakillari va turli yoshlarda bo'lganligi sababli yurtimizda besh muhim tashabbusning bevosita ishtirokchilari ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Biz jamiyatda yoshlarimizni besh muhim tashabbus doirasida fidoyi qilib, milliy g'oyaga sadoqatli, istiqbolga ishonch ruhida tarbiyalashimiz lozim. Qachonki, "Yoshlar milliy g'oya bilan qurollangan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishishi, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni jonli misollar bilan" rivojlantirishlari mumkin bo'ladi.

Tadqiqot doirasida texnogen sivilizatsiya sharoitida talabalarning ma'naviy-madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

milliy axborot makoniga qat'iy chegara qo'yib bo'lmasligini nazarda tutib, talabalarning ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlaydigan, vayronkorlik va buzg'unchilik mazmunidagi axborot oqimidan himoya qilishning muhim omili sifatida alohida "Yoshlarni zararli axborotlar ta'siridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini, "Havfsiz internet" dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Axborotning yo'lini to'sib qo'yish teskari samaraga sabab bo'lishi, mish-mishlar va vahimaning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday sharoitda istisnosiz talabalarni sodir bo'layotgan voqeahodisalar va ularning mohiyati haqida "oldini olish" tarzida xabardor qilib borish, har qanday tashqaridan uzatilayotgan ma'lumotning, albatta, ma'lum maqsad ko'zlashini va bunday ma'lumot reallikni adekvat aks ettirmasligini anglatish va eng muhimi bunday tadbirlarni kerak bo'lganida emas, doimiy, muntazam "axborotga qarshi emlash" shaklida amalga oshirish zarur.

Dissertatsiyaning "**Besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishning samaradorligi**" deb atalgan uchinchi bobida Besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, besh tashabbus asosida talaba yoshlar ma'naviyatni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalari bayon etilgan.

Besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun dastlab tadqiqot faraziga mos metodika ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari metodikasi tajriba-sinov ishlari bosqichlari, tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga doir tarqatma materiallar hamda tajriba-sinov metodlarini o'z ichiga qamrab oldi.

Muammoni tadqiq etishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalarning mohiyatiga tayangan holda tajriba-sinov ishlarining umumiy davri va bosqichlari belgilandi. Bosqichlarning belgilanishida quyidagi tamoyillar ustuvor bo'ldi:

1. Har bir bosqichda aniq maqsad va vazifalarning amalga oshirilishiga erishish.

2. Bosqichlar o'rtasida o'zaro mantiqiy bog'liqlik hamda uzviylikning mavjud bo'lishini ta'minlash.

Muammoga doir manbalar mazmunini nazariy jihatdan tahlil etish hamda respondent-talaba va professor-o'qituvchilarning faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular ishtirokida suhbatlar tashkil etish asosida auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishi taxmin qilindi, tajriba-sinov ishlari jarayonida esa ushbu farazning to'g'riligi tasdiqlandi.

Besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatning quyidagi tamoyillar ustuvorligi asosida tashkil etilishiga alohida e'tibor berildi:

1. Besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilganligi.

2. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazilishidan ko'zlangan maqsadning aniqligi.

3. Asosiy maqsad doirasida tajriba-sinov ishlarining har bir bosqichida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarning aniq belgilanishi, ya'ni, xususiy maqsadlarning aniqlanganligi.

4. Tajriba-sinov ishlarining puxta asoslangan loyiha asosida yo'lga qo'yilishi.

5. Besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishni ta'minlovchi shart-sharoitning mavjudligi.

6. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning milliy qadriyatlar hamda milliy istiqloq g'oyasi asoslari bilan boyitilganligi.

7. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarning ma'naviy qiyofasi va ularning kasbiy mahorati darajasining inobatga olinganligi.

8. Oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlarining ma'naviyatini rivojlantirish jarayonining izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilganligi.

9. Oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlarining ma'naviyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning dinamik xususiyat kasb etishi.

10. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda talaba yoshlarning shaxsiy imkoniyatlarini erkin namoyish eta olish huquqiga egaliklari.

11. Amaliy faoliyat jarayonida insonparvarlik va demokratik g'oyalarning ustuvorligiga erishish.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazishga doir materiallar tayyorlanganidan so'ng tadqiqot ob'ektlari hisoblangan Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiallarida o'quv seminarlari tashkil etildi. O'quv seminarlari davomida tajriba-sinov materiallari ekspertizadan o'tkazildi va amaliyotga tatbiq etish uchun taqdim etildi.

Tajriba-sinov ishlari - asoslovchi va ta'kidlovchi bosqichlarda amalga oshirilib, Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiallarining jami 675 nafar respondentlari ishtirok etishdi(2-jadval).

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun olib borilgan izlanishlar quyidagicha ilmiy-metodlar yordamida amalga oshirildi.

1. Ilmiy-metodik adabiyotlar, rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va o'rinlardagi ish tartibini tahlil qilish.
2. Ijtimoiy savolnoma asosida fikrlarni o'rganish.
3. Pedagogik kuzatish metodlari.
4. Matematik-statistik metodlar.

2- jadval

Tajriba sinovlari uchun tanlangan guruhlardagi respondentlar soni va o'zlashtirish ko'rsatkichlari (tajriba boshida)

Ta'lim muassasalari	Nazorat guruhi n=345				Tajriba guruhi n=330				Jami
	Jami	Yuqori	O'rta	Past	Jami	Yuqori	O'rta	Past	
Nukus davlat pedagogika instituti	115	20	61	34	110	23	55	32	225
Qoraqalpoq davlat universiteti	115	21	59	35	110	22	54	34	225
O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya universiteti Nukus filiali	115	22	60	33	110	24	53	33	225
Umumiy soni	345	63	180	102	330	69	162	99	675
Umumiy o'rtacha	115	21	60	34	110	23	54	33	225

Tajriba sinovlar uchun tanlangan guruhlardagi respondentlar soni va o'zlashtirish ko'rsatkichlari (tajriba yakunida)


Ta'lim muassasalari	Nazorat guruhi n=345				Tajriba guruhi n=330				Jami
	Jami	Yuqori	O'rta	Past	Jami	Yuqori	O'rta	Past	
Nukus davlat pedagogika ishtituti	115	20	61	34	110	32	64	14	225
Qoraqalpog' davlat universiteti	115	21	59	35	110	31	63	16	225
O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya universiteti Nukus filiali	115	22	60	33	110	33	62	15	225
Umumiy soni	345	63	180	102	330	96	189	45	675
Umumiy o'rtacha	115	21	60	34	110	32	63	15	225

Talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlanganlik darajasiga doir nazorat natijalari


	Respondentlar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba boshida				
Nazorat guruhi	115	21	60	34
Tajriba guruhi	110	23	54	33
Tajriba yakunida				
Nazorat guruhi	115	21	60	34
Tajriba guruhi	110	32	63	15

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar umumlashtirilgan holda qo'yidagi natijalarga erishildi. Biz bu ko'rsatkichlarni foizlarda hisoblab chiqdik.

Yuqoridagi jadval asosida berilgan quyidagi diagrammada tajriba hamda nazorat guruhlarini bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar asosida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligi va samaradorligini o'rganish maqsadida χ^2 matematik-statistik tahlil amalga oshirildi. Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammalarni chizamiz:



2-rasm. Tajriba hamda nazorat guruhlari tajriba boshida



3-rasm. Tajriba hamda nazorat guruhlari tajriba yakunida

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

Demak, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi $(79-70)\% = 9\%$ ga yuqori ekan. Bu esa, o'z navbatida: $\frac{79\%}{70\%} = 1,12$ barobarga ortiqqligini ko'rsatadi.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasining baholash mezoni noldan kattaligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish darajasi, nazorat guruhidagi o'zlashtirish darajasidan yuqori ekan. Demak, Besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlanganlik darajasiga doir nazorat

natijalarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari o'z samarasini ko'rsatdi.

XULOSA

Biz tomondan amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugungi kunda talabalar ma'naviyatini rivojlantirish - bu o'ziga xos ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon bo'lib, uning maqsadi talabalarning ma'naviy yuksalishini ta'minlash, ularni har tomonlama sog'lom, axloqiy qadriyatlarga ega va ijtimoiy mas'uliyatli insonlar sifatida shakllantirishdir.

2. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Besh tashabbus" doirasida talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Talaba yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy muhit, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar va milliy an'analarning o'rni muhim ekanligi aniqlandi.

4. Pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.

5. Yurtimizda "Besh tashabbus" doirasida madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish asosida talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligi ta'kidlandi.

6. Talaba yoshlarning ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi omillar (oila, oliy ta'lim muassasasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhit) o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

7. Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda tarbiya berish talaba yoshlarda vatanparvarlik, mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berildi.

8. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishda pedagogning shaxsiy namunasi, kasbiy mahorati va ma'naviy qiyofasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan yoritib berildi.

9. "Besh tashabbus" asosida tashkil etilgan to'garaklar, klublar va ijodiy kechalar talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi aniqlandi.

10. Talaba yoshlar ma'naviyatini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostika usullari ishlab chiqilib, ularning amaliy samaradorligi asoslab berildi.

11. Tadqiqot natijalari asosida talaba yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ularni ta'lim amaliyotiga joriy etishning istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

“Besh tashabbus” doirasida oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish uchun maxsus integratsiyalashgan dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Talaba yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda interaktiv pedagogik texnologiyalar, treninglar va vorkshoplarni keng joriy qilish orqali ularning faol ishtirokini ta’minlash zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida madaniyat, san’at, sport va kitobxonlikka ixtisoslashgan to‘garaklar faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirish va ularga zamonaviy resurslar ajratish tavsiya etiladi.

Talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ijodiy loyihalar, tanlovlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni muntazam ravishda o‘tkazib borish kerak.

Oila, ta’lim muassasasi va jamoat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali talaba yoshlarning ma’naviy tarbiyasida uzviylikni ta’minlash muhim.

Talabalar ma’naviyatini baholashning aniq mezonlari va monitoring tizimini joriy etish orqali olib borilayotgan ishlar samaradorligini doimiy tahlil qilib borish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi telekanallarida, Jumladan, “O‘zbekiston 24”, “Sport”, “Yoshlar”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Mahalla” v.h.k. telekanallarida “Besh tashabbus” doirasida o‘tkazilayotgan tadbir, badiiy kecha, sport musobaqalari haqida maxsus reportaj yoki dastur tayyorlash.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS
(I bo'lim; I часть; I part)

1. Hojamatov A.A. *Five initiatives and its role in raising the spirituality of youths.* // International Journal of Pedagogics (2771-2281). Vol. 5 No. 03 (2025): Volume 05 Issue 03: International Journal of Pedagogics. <https://theusajournals.com/index.php/ijp>.

2. Hojamatov A.A. Xotin-qizlar sportini rivojlantirishni takomillashtirishda jismoniy-estetik madaniyatni oshirish. "Sport ilm-fanining dolzarb muammolari" Xalqaro ilmiy-nazariy jurnali. № 3 (2023) 44-47 b. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/75>.

3. Hojamatov A.A. Aspects of developing physical-aesthetic culture with the help of women-girls' sports. Science and Education in Karakalpakstan 3/2 (35) son 259-261 b. 2023 yil. ISSN 2181-9203.

4. Hojamatov A.A. Talaba-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport yordamida estetik madaniyatini tarbiyalash. "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў". - Nukus, 2024y. №4/1. 554-558 b. (13.00.02; №20).

5. Hojamatov A.A. Ta'limni yanada takomillashtirishda tarbiyaning tutgan o'rni. // "Sport ilm-fanining dolzarb muammolari" Xalqaro ilmiy-nazariy jurnali. № 3 (2025) 6-9 b. <https://sport-science.uz/index.php/journal>

6. Hojamatov A.A. Beshta tashabbus va uning yoshlar ma'naviyatini yuksiltirishdagi o'rni. // Dene tárbiyasí há m sport xabarshísí. № 1. 2025y. 156-159 b.

7. Hojamatov A.A. Buyuk mutafakkirlar jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqidagi fikrlari. // Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar. № 4 -son. 2025y. 196-200 b.

8. Hojamatov A.A. Pedagogalimlardiń tárbiyashí shaxsí tuwrísındaǵı pikirleri. // "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў". - Nukus, № 3/2 2025. 144-146 b. (13.00.02; №20).

9. Hojamatov A.A. Jaslardiń ruwxıy mádeniyatın qalıplestiriw. // "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў". - Nukus, № 1/2 2026. 382-387 b. (13.00.02; №20).

10. Hojamatov A.A. Besh tashabbus asosida talaba yoshlarning ma'naviy madaniyatni tarkib toptirish. // Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar. № 2 -son. 2026y. 294-299 b.

11. Xojametov A.A. Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar. // Maktabgacha va maktab ta'limi ilmiy jurnali. № 4 (2) -son. 2026y. 205-207 b.

12. Xojametov A.A. Olim Abdurauf fitratning yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishdagi pedagogik qarashlari. // Ta'limda istiqbolli izlanishlar Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. № 4 –son 2-qism. 2026y. 402-407 b.

13. Xojametov A.A. Ta'lim sohasida pedagogning innovatsion faoliyatini takomillashtirish. // Globalashuv jarayonida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi dolzarb muammo va yechimlar: Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Samarqand. 2023y. B 571-572.

14. Xojametov A.A. Talaba yoshlar madaniyatni rivojlantirishda besh tashabbusning o'ri. // Yozgi olimpiya va paralimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlashning dolzarb muammolari hamda yechimlari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Nukus 2025y. B 571-572.

15. Xojametov A.A. Jaslar arasında salamat turmıs tárzin úgit násiyatlaw hám olardıń fizikalıq tayarlıq dárejesin bahalaw sistemasin engiziw jolları. // Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Nukus. 2024y. - B 302-304.

16. Xojametov A.A. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish. // Sport sohasida ilmiy tadqiqotlarni qo'llashda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muammo va yechimlari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Nukus. 2026y. - B 219-221.

17. Xojametov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash. // Sport turlari nazariyasi va amaliyoti: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman. Nukus 2025y. B 120-122.

18. Xojametov A.A. Talim innovatsiyalarining mohiyati haqidagi falsafiy-pedagogik fikrlar. // Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi dolzarb muammolar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Farg'ona 2025y. B 274-277.

(II бўлим; II часть; II part)

19. Xojametov A.A. Qoraqalpog'istonda xotin-qizlar sportini rivojlantirish orqali ularning jismoniy-estetik madaniyatini takomillashtirish (Monografiya). UO'K 796.035(575.172) KBK 75(5Uzb 6Q) X-22. ISBN 978-9910-646-73-7. Nukus-2025. -166 b.

20. Utebayev T.T., Abatov J.B., Xojametov A.A. Pedagogikalıq sheberlik (Darslik). Nashr ruxsatnoma. Ro‘yxatga olish raqami: 01/1336-A/F-5/7. Nukus, 2023. - 120 b.

21. Xojametov A.A., Abatov J.B., Xadyatullaev Z., Axmedov A. Dene tárbiyası hám olimpiya oýınları tariyxı (O‘quv qo‘llanma). Nashr ruxsatnoma. Ro‘yxatga olish raqami: 01/1336-A/F-5/20. Nukus, 2024. - 176 b.

22. Mambetov B.J., Xojametov A.A., Djollibaeva Sh., Bekmuradov E. Milliy va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma). Nashr ruxsatnoma. Ro‘yxatga olish raqami: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 29-may 2023-yilgi 232-sonli buyrug‘i asosida nashrga tavsiya qilingan. T.: “Metodist nashriyoti” 2023. – 155 b.

23. Maxmudov B.A., Xojametov A.A. Maktabgacha va boshlangich ta’limda bolalar gimnastikasi (Darslik). 70920101- Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari boyicha) va 70920101 - Ijtimoiy ish (yoshlar bilan ishlashni tashkil etish) mutaxassisliklari uchun. UOK 373;796. KBK 74.202;75.1. M-94. ISBN 978-9910-9415-7-3. T. City of book MCHJ. 2024. – 208b.

24. Xojametov A.A. Pedagogikalıq tájiribeni toplaw sisteması. // Professional ta’lim sohasida jismoniy tarbiya va sport: muammolari va rivojlanish istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Nukus 2025y. B 34-35.

25. Xojametov A.A. Moslashuv qobiliyati bolajak pedagoglarni kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida. // Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi dolzarb muammolar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Farg‘ona 2025y. B 270-274. 25.

26. Xojametov A.A. Milliy va harakatli o‘yinlarga pedagogik ta’rif va uning ahamiyati. // Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent 2024y. B 136-140.

27. Xojametov A.A. Milliy va harakatli o‘yinlarning insonning jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni. // Milliy sport túrleri hám xalıq oýınların gálabalıq rawajlandırıwdıń ilimiy - metodikalıq tiykarların jetilistiriw: Respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari to‘plami. 2023y. – B.109-110.

28. Xojametov A.A. Xotin-qizlar sporti yordamida jismoniy-estetik madaniyatini tarkib toptirish jihatlari. // Zamanagóy sharayatta joqarı mađlıwmatlı qánigelerdi tayarlawdıń aktual mashqalaları: Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya materiallari toplami. Nukus - 2023y - B.33-36.

29. Xojametov A.A. Inklyuziv ta'limning tashkiliy masalalari. // Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining muammolari va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent 2025y. B 21-24.

30. Xojametov A.A. Futbol sport turni ommaviylashtirish va rivojlantirish choralari. // Zamonaviy futbolda innovatsion texnologiyalardan foydalanish istiqbollari: Respublika anjumani. 2023y. - B. 148-152.

31. Xojametov A.A., Bisenbaev I.Q. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'llari. // Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy va uslubiy asoslari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani Chirchiq 2024y. - B 70-72.

32. Xojametov A.A., Utepov M.D. Dene t'arbiyası sistemasında jenil atletikanıń ornı hám áhmiyeti. // Oliy va professional ta'limda jismoniy tarbiya hamda sportning samaradorligini oshirishning dolzarb pedagogik muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Nukus 2024y. - B 62-64.

33. Xojametov A.A., Utepov M.D. Role of national and active games in the physical and socioeconomic development of a person. // Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 2024y. - B 251-2553.

Avtoreferat “Muğallim hám úzliksiz bilimlendiriw” ilmiy-metodik jurnali
tahririyatida tahrirdan o‘tkazildi.